

XIZMATLAR KO'RSATISHGA (VIDEOKUZATUV MOSLAMALARINI O'RNATISHGA)

OID SHARTNOMA №ET-186431

(<https://etender.uzex.uz/> lot: 22110012186431 09.11.2022 y.)

Urgut t.,

28 Noyabr 2022 yil

"SAMARKAND SMART STANDART SERVICE" Xususiy korxonasi keyingi o'rinlarda "Bajaruvchi" deb yuritiladi. O'zining ustavi asosida ish yurituvchi direktor D.Usmonov nomidan bir tomondan va Urgut tuman XTB keyingi o'rinlarda "Buyurtmachi" deb yuritiladi, o'zining Ustavi asosida ish yurituvchi direktori E.Po'latov nomidan, ikkinchi tomondan mazkur shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar.

1. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. Mazkur shartnoma bo'yicha "Bajaruvchi" "Buyurtmachi"ga Urgut tuman XTBga qarashli 41 maktabga videokuzatuv uskunalarini yetkazish va o'rnatish (keyingi o'rinlarda - "Xizmatlar" deb yuritiladi) xizmatlarini ko'rsatish, "Buyurtmachi" ushbu "Xizmatlar"ni qabul qilish va qiymatini to'lash majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

1.2. "Xizmatlar"ning aniq turlari, ularning soni, sifati va narxi, shuningdek ularni ko'rsatish muddatlari mazkur shartnomaning tarkibiy qismi quyida va ilovasida keltiriladi.

№	Ishning nomi	Boshlang'ich narxi (QQS siz)	Kontraktning umumiy qiymati (bitim summasi QQS siz)
1	Ustanovka kameri videonablyudeniya - Urgut tuman XTBga qarashli 41 maktabga videokuzatuv uskunalarini yetkazish va o'rnatish xizmati (ilovaga asosan)	20 000 000	19 612 166
	Jami:		19 612 166

Summa so'z bilan: **19 612 166 (O'n to'qqiz million olti yuz o'n ikki ming bir yuz oltmish olti) so'm. QOS siz.**

2. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

2.1. "Buyurtmachi" ning huquqlari:

2.1.1. "Bajaruvchi"dan shartnomani bajarish uchun zarur bo'lgan amaldagi davlat standartlari va boshqa normativ hujjatlar bilan ta'minlashni talab qilish;

2.1.2. "Bajaruvchi"dan "Xizmatlar" "Buyurtmachi"ning hisobiga transportda tashilganda transport xarajatlarini qoplashni talab qilish;

2.1.3. "Bajaruvchi"dan mazkur shartnomaga muvofiq beriladigan ko'rsatilishini buyurtmanomaga muvofiq tegishli sifatga ega bo'lgan "Xizmatlar" ko'rsatilishini talab qilish;

2.1.4. zarur sifatga ega bo'lmagan "Xizmatlar" ko'rsatilgan taqdirda o'z tanlashiga ko'ra:

- zarur sifatga ega bo'lmagan "Xizmatlar" shunga o'xshash "Xizmatlar" bilan almashtirilishini;

- "Xizmatlar"ning kamchiliklari bepul bartaraf etilishini yoki kamchiliklar "Buyurtmachi" yoxud uchinchi shaxslar tomonidan to'g'rilanishi xarajatlarini qoplashni;

- bahosining mutanosib tarzda kamaytirilishini talab qilish

2.1.5. SHartnoma shartlari bajarilmaganligi yoki zarur darajada bajarilmaganligi natijasida etkazilgan zarar qoplanishini "Bajaruvchi"dan talab qilish.

2.2. "Buyurtmachi"ning majburiyatlari:

2.2.1. «Xizmatlar»ni 2022 yilda byudjetdan ajratilgan mablag'lari "Bajaruvchi" bilan shartnoma tuzish;

2.2.2. O'z buyurtmanomasi bo'yicha ko'rsatilgan "Xizmatlar"ni mazkur shartnomaga muvofiq qabul qilish;

2.2.3. «Xizmatlar»ga mazkur shartnomaning 3.1-bandida ko'rsatilgan narx bo'yicha, qabul qilish-topshirish dalolatnomasi imzolangan paytdan boshlab, g'aznachilik bo'linmasida ro'yxatidan o'tkazgandan so'ng 10 kun mobaynida haq to'lash.

2.3. «Bajaruvchi» quyidagi huquqlarga ega:

2.3.1. Ko'rsatilgan "Xizmatlar" uchun oldindan haq to'lanishini va amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va hajmda uzil-kesil hisob qilinishini "Buyurtmachi"dan talab qilish;

2.3.2. Berilgan buyurtmanomaga muvofiq ko'rsatilgan "Xizmatlar"ni qabul qilish asossiz rad etilishi natijasida etkazilgan zarar qoplanishini "Buyurtmachi"dan talab qilish.

2.4. «Bajaruvchi» quyidagilarga majbur:

2.4.1. «Buyurtmachi» bilan tuzgan shartnomasi G'aznachilik bolinmasidan ro'yxatdan o'tkazilgandan so'ng "Xizmatlar"ni ko'rsatish:

2.4.2. "Buyurtmachi"ga "Xizmatlar"ni mazkur shartnomaga muvofiq yoki "Buyurtmachi" tomonidan mazkur shartnomaning 4.8-bandida nazarda tutilgan tartibda beriladigan uning buyurtmanomasiga muvofiq muddatlar, sifat va miqdorda ko'rsatish;

2.4.3. Agar "Xizmatlar"ni ko'rsatish jarayonida "Bajaruvchi" shartnoma shartlari va normativlardan chekinishga yo'l qo'ygan bo'lsa, "Buyurtmachi"ning talabi bilan aniqlangan barcha kamchiliklarni 1 kun muddatda tekin tuzatib berish.

3. SHARTNOMANING BAHOSI VA HISOB-KITOB TARTIBI

3.1. SHartnomaning umumiy summasi 19 612 166 (O'n to'qqiz million olti yuz o'n ikki ming bir yuz oltmish olti) so'm. QOS siz deb belgilandi. Bajariladigan ishlar (xizmatlar) uchun oldindan to'lov miqdori 30 % ni tashkil qiladi.

3.2. Qolgan 70 % foizlik to'lov schet faktura va bajarilgan ishlar dalolatnomasiga asosan shartnomani amal qilish muddati tugaganga qadar to'liq amalga oshirishilishi shart.

3.3. Ko'rsatilgan "Xizmatlar" uchun pul ko'chirish yo'li bilan naqd pulsiz tartibda hisob-kitob qilinadi.

4. SHARTNOMANING BAJARILISHI

4.1. SHartnoma mazkur shartnoma va qonun hujjatlari shartlari va talablariga muvofiq zarur tarzda bajarilishi kerak. Agar tomonlar o'z zimmlariga qabul qilingan barcha majburiyatlar bajarilishini ta'minlasa, shartnoma bajarilgan deb hisoblanadi.

4.2. SHartnoma bajarilishini bir tomonlama rad etishga yoki shartnoma shartlarini bir tomonlama o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi, qonun hujjatlarda belgilangan hollar bundan mustasno.

4.3. "Xizmatlar" qabul qilish-topshirish dalolatnomalari tuzilgan sana shartnomalar bo'yicha majburiyatlar bajarilgan sana hisoblanadi. "Buyurtma"chining Hisob-kitob hujjatida g'aznachilik bo'linmalarining shtampida ko'rsatilgan sana "Xizmatlar"ga haq to'lash bo'yicha "Buyurtmachi" majburiyatlari bajarilgan sana hisoblanadi.

4.4. "Buyurtmachi" muddatlar buzilgan holda ko'rsatilgan "Xizmatlar"ni qabul qilishni rad etishga haqlidir.

4.5. Nazarda tutilgan miqdordan ortiqcha bir nomda "Xizmatlar" ko'rsatilishi ushbu assortimentga kiruvchi boshqa nomdagi ko'rsatilmagan "Xizmatlar" o'rnini to'ldirish sifatida qaralmaydi va ko'rsatilmagan "Xizmatlar"ning o'zni to'ldirilishi kerak, bunday "Xizmatlar" "Buyurtmachi"ning oldindan berilgan yozma roziligi bo'yicha ko'rsatilgan hollar bundan mustasno.

4.6. Ko'rsatilgan "Xizmatlar" bevosita "Buyurtmachi"ning mas'ul xodimi tomonidan dalolatnoma bo'yicha qabul qilinadi. Dalolatnomada ko'rsatilgan "Xizmatlar" miqdori, ularning sifati ko'rsatiladi.

4.7. SHartnomada nazarda tutilgan "Xizmatlar" ko'rsatilishi mazkur shartnomaga muvofiq yoki "Buyurtmachi"ning buyurtmanomasi ko'rsatilgan muddatlar va hajmda mazkur shartnomada ko'rsatilgan davr mobaynida amalga oshiriladi. Ushbu maqsadlarda "Bajaruvchi" Buyurtmachilarning buyurtmanomalarini ro'yxatdan o'tkazish daftarini yuritadi.

4.8. "Buyurtmachi" ilgari berilgan buyurtmanomani bekor qilishga yoxud "Xizmatlar"ning tegishli qismlarini ko'rsatish sanasini o'zgartirishga haqlidir, bu haqda "Bajaruvchi"ni buyurtmanomada ko'rsatilgan sana boshlanishidan kamida 1 kun oldin xabardor qiladi.

5. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

5.1. Ko'rsatilayotgan "Xizmatlar" sifati, miqdori "Bajaruvchi" tomonidan noto'g'ri aniqlanishi, ularning qiymati noto'g'ri belgilanishi va undirilishi hollari aniqlangan taqdirda "Bajaruvchi" ko'rsatilayotgan "Xizmatlar"ning sifatini, shuningdek ularning miqdorini hisobga olgan holda qayta hisob-kitob qiladi, hisoblab chiqilgan ushbu summadan tashqari buyurtmachiga noto'g'ri hisob-kitob qilingan summaning 20 foizi miqdorida jarima to'laydi.

5.2. Agar ko'rsatilgan "Xizmatlar"ning sifati, assortimenti, navlari standart, texnik shartlar talablariga, namunalarga (etalonlarga) yoki shartnomada belgilangan boshqa shartlarga javob bermagan taqdirda, aybdor tomon ko'rsatilgan, sifati zarur darajada bo'lmagan "Xizmatlar" qiymatining 20 foizi miqdorida jarima to'laydi.

5.3. "Xizmatlar" ko'rsatish bo'yicha shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlar bajarilishi rad etilganligi uchun "Bajaruvchi" "Buyurtmachi"ga belgilangan ustamalardan tashqari ko'rsatilishi kerak bo'lgan

"Xizmatlar"ning 25 foizi miqdorida jarima to'laydi. Jarimadan tashqari, "Bajaruvchi" "Buyurtmachi"ga "Xizmatlar" ko'rsatilmaligi natijasida etkazilgan zararni to'laydi.

5.4. Xizmatlar ko'rsatish kechiktirilgan yoki to'liq ko'rsatilmagan taqdirda "Bajaruvchi" "Buyurtmachi"ga kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq

bunda penyaning umumiy summasi ko'rsatilmagan "Xizmatlar" qiymatining 50 foizidan ortiq bo'lmasligi kerak.

Penya to'lanishi shartnoma majburiyatlarini buzgan tomonni shartnomani zarur tarzda bajarishdan va "Xizmatlar" ko'rsatish muddati kechiktirilishi yoki to'liq ko'rsatilmaligi tufayli etkazilgan zararlar qoplanishidan ozod etmaydi.

5.5. Ko'rsatilgan "Xizmatlar" uchun o'z vaqtida haq to'lanmaganda "Buyurtmachi" "Bajaruvchi"ga muddati kechiktirilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida maxsus hisobraqamidan penya to'laydi, biroq bu kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'lmasligi kerak.

5.6. "Buyurtmachi" tomonidan tegishli shartnoma bajarilmaganligi yoki zarur darajada bajarilmaganligi uchun "Buyurtmachi"ni javobgarlikka tortishda shuningdek uning xatti-harakatlari (harakatsizligi) "Buyurtmachi" tomonidan shartnoma bo'yicha shartnoma majburiyatlari bajarilmasligiga (zarur tarzda bajarilmasligiga) olib kelgan "Bajaruvchi"ning javobgarligi ham ko'rib chiqiladi. "Bajaruvchi"ning aybi bilan shartnomaning "Buyurtmachi" tomonidan bajarilmasligi (zarur tarzda bajarilmasligi) natijasida etkazilgan zarar belgilangan tartibda "Bajaruvchi" tomonidan qoplanadi.

5.7. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan tomonlarning javobgarligi chora-tadbirlari fuqarolik qonunchiligi normalariga muvofiq qo'llaniladi.

5.8. Nazorat organlari tomonidan o'tkazilgan tekshirish davomida bajarilgan ishlar va tovar mahsulotlar narxi yuqori deb topilgan taqdirda o'rtadagi farq tovar etkazib beruvchi tomonidan qoplanadi.

6. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

6.1. Kelishmovchiliklar va nizoli masalalar kelib chiqqan taqdirda, tomonlar, qoidaga ko'ra, mustaqil ravishda ularni sudgacha hal etish choralari ko'radilar.

6.2. Tomonlar kelishmovchiliklar va nizolarni hal etish uchun bevosita sudga murojaat qilishga haqlidir.

7. SHARTNOMANING AMAL QILISHI

7.1. Tomonlar o'rtasidagi munosabatlar ular tomonidan mazkur shartnomaning barcha shartlari bajarilgan va hisob-kitob to'liq tugallangan taqdirda to'xtatiladi.

7.2. SHartnomani taraflarning o'zaro kelishuviga asosan yoki O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga hamda amaldagi qonun xujjatlari normalariga binoan keltirilgan zararni to'lagan holda muddatidan ilgari bekor qilishi mumkin.

7.3 Mazkur shartnoma **19 612 166 (O'n to'qqiz million olti yuz o'n ikki ming bir yuz oltmish olti) so'm. QQS sizlik №ET-186431**-sonli shartnoma 2022 yil «28» Noyabrda 2 nusxada tuzilgan bo'lib 2022 yil «23» Noyabrdan 2022 yil «31» dekabrgacha amal qiladi. Shartnoma taraflar tomonidan imzolanib, Urgut tumani bo'yicha G'aznachilik bo'linmasidan belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgandan so'ng qonuniy kuchga kiradi.

8. FORS-MAJOR

8.1. Ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmasligi engib bo'lmaydigan kuch holatlari natijasida kelib chiqqan va bu holatlar mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etgan hollarda Vazirlar Mahkamasining 2005 yil 15 fevralidagi 63-sonli "Engib bo'lmas kuch (fors-major) holatlarining mavjudligini tasdiqlash mexanizmini kiritish to'g'risida"gi qarorida ko'zda tutilgan shartlarning mavjudligiga ko'ra tomonlar bunday qisman yoki to'liq bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

9. Korrupsiyaga qarshi shartlashuv

9.1 Ushbu shartnomaning har bir tomoni o'ziga nisbatan qo'llaniladigan barcha, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchilik va normativ xujjatlardagi Korrupsiyaga qarshi tegishli shartlar va talablarni tushunishi haqidabir-birini ishontiradi va ularga amal qilishini kafolatlaydi.

9.2 Iste'molchi ushbu shartnoma amalda bo'lgan butun davr mobaynida u (shuningdek uning mansabdor shaxslari, direktori, xodimlari, agentlari va boshqa vakillari) Ta'minotchi korxonaning manfaatlarida uning agenti yoki vakili sifatida xarakat qilib, Ta'minotchi korxonaning hamda O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchilik va normativ xujjatlarning Korrupsiyaga qarshi tegishli shartlari va talablariga qat'iy rioya etish majburiyatini oladi.

10. YAKUNIY QOIDALAR

10.1. Mazkur shartnoma tomonlarning kelishuviga ko'ra yoki boshqa tomon shartnoma shartlarini jiddi ravishda buzgan taqdirda, tomonlardan birining talabi bo'yicha sud tartibida bekor qilinishi mumkin.

10.2. Mazkur shartnomaga har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar ular yozma shaklda sodir etilishi va tomonlarning bunga zarur darajada vakil qilingan vakillari tomonidan imzolanishi sharti bilan haqiqiy hisoblanadi.

10.3. Mazkur shartnoma tomonlarning har biri uchun bir nusxadan ikki nusxada tuziladi. SHartnoma barcha nusxalari teng yuridik kuchga egadir.

10.4. Mazkur shartnoma, unga o'zgartirishlar (qo'shimchalar ro'yxatdan o'tkazilgandan keyin) bajarilishi kerak.)

11. TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI VA BANK REKVIZITLARI

"BAJARUVCHI"

Tashkilot nomi: "SAMARKAND SMART STANDART SERVICE" Xususiy korxonasi
Manzil: Samarkand viloyati, Samarkand shaxri, Rudakiy kuchasi 97 uy
Tel.: +998(97) 913-50-66
Faks: +998(93) 992-50-66
STIR: 308848472
IFUT: 43210
H/R: 20208000205436674001
Bank: SAMARKAND SH., "IPOTEKA-BANK" ATIB SAMARKAND VILOYAT FILIALI
MFO: 00312



[Handwritten signature]
imzo

D.Usmonov

"BUYURTMACHI"

Tashkilot nomi: Urgut tuman XTB
Manzil: Urgut tumani, Navoiy shox ko'chasi 8-uy
Tel/Fax: 90 448-07-40
STIR kodi: 200784150
IFUT: 84112
Buyurtmachining G'azna shaxsiy hisobvarag'i:
SH/V: 400122860182367092100075001
Urgut tumani bo'yicha G'aznachilik bo'linmasi
YAG'H: 23402000300100001010
Bank nomi: Toshkent sh Markaziy bank XKKM
MFO: 00014 **INN:** 201122919



Rahbar:
M.O'

[Handwritten signature]
E.Po'latov

Urgut tuman XTB va "SAMARKAND SMART STANDART SERVICE" Xususiy korxonasi o'rtasida 2022 yil "28" Noyabrda tuzilgan ET-186431-shartnomaga ilova

№	Naimenovanie resursov, oborudovaniya, konstruksiy, izdelyiy i detaley	Edinisa izmereniya	Kolichestvo yedinis	Smetnaya stoimost'	
				na yedinisu	obshaya
1	SIFROVOY VIDEOREGISTRATOR NVR N.265 NA DS-7616NI-K2	SHT	1	1 400 000	1 400 000
2	VIDEOKAMERA SVETNAYa KUPOL'NAYa IP N265 S IK PODSVETKOY F-2,8MM DS-2CD2421G0-I - IP - HD	SHT	10	600 000	6 000 000
3	KOMMUTATOR SETEVOY 8 PORTA, SAT.5E,UTR-1U (DS-3E0326-E/M)	SHT	2	895 000	1 790 000
4	Blokpitnya 12 v 10 a	SHT	3	95 000	285 000
5	JESTKIY DISK NA 4 TB	SHT	1	1 455 000	1 455 000
6	PROVOD KABEL UTP	M	950	3 950	3 752 500
7	KONNKTOR RJ	SHT	50	2 500	125 000
8	ShITIKER PITNYa	SHT	20	2 500	50 000
9	PROVOD HDMI - 10 m	SHT	1	65 000	65 000
10	IZOLENTA PXV	SHT	5	500	2 500
11	UDNITEL KOMPLEKT	SHT	1	45 000	45 000
12	MANJANI ShIT	SHT	1	125 000	125 000
13	MANTAJNI KAROPKA	SHT	20	10 000	200 000
14	MANTOR 32 LED	SHT	1	1 310 000	1 310 000
ITOGO PO STROITEL'NIE MATERIALI, KONSTRUKSII I OBORUDOVANIE		SUM			16 605 000
PROChIE ZATRATI I RASXODI PODRYaDChIKA-18,11%		SUM			3 007 166
VSEGO STOIMOST' OB'EKTA		SUM			19 612 166

Summa so'z bilan; 19 612 166 (O'n to'qqiz million olti yuz o'n ikki ming bir yuz oltmish olti) so'm. QOS siz.

"BAJARUVCHI"

"BUYURTMACHI"

"SAMARKAND SMART STANDART SERVICE"

Xususiy korxonasi direktori

Urgut tuman XTB mudiri

D.USMONOV

E.PO'LATOV



**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA HUQUQIY
XULOSA**

NZ3120452503

1. Loyihaning turi : Shartnoma
2. Loyihaning nomi: Xizmat ko'rsatish shartnomasi
3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot: URGUT TUMAN XALQ TA'LIMI MUASSASALARI FAOLIYATINI METODIK TA'MINLASH VA TASHKIL ETISH BO'LIMI tomonidan 23.11.2022 yilda kiritilgan.

4. Loyihaning qisqacha mazmuni:

Urgut tuman xalq ta'lim bo'limi va "SAMARKAND SMART TECHNOLOGY SYSTEMS" MChJ o'rtasida jami **19 612 166** (O'n to'qqiz million olti yuz o'n ikki ming bir yuz oltmish olti) so'mlik suvni yetkazib berish va suv xo'jaligi xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha shartnoma loyihasi ishlab chiqilgan.

XULOSA:

Loyiha O'zbekiston Respublikasi **Fuqarolik kodeksi**, O'zbekiston Respublikasining "**Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida**" 1998-yil-29 avgustdagi 670-I-son qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "**O'zbekiston Respublikasining «Davlat xaridlari to'g'risida»gi qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida**" 2018-yil 27-sentyabrdagi PQ-3953-son va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "**Quyida bo'g'inda suv resurslarini boshqarish samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida**" 2022-yil 19-apreldagi 196-son qaroriga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Urgut tuman yuridik
markazi
bosh yuristkonsulti:



Q.Q.MINGBOYEV

28.11.2022



Yuridik shaxs (tadbirkorlik subyektini) davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida

GUVOHNOMA

Ushbu bilan Tadbirkorlik subyektlari yagona davlat reyestriga

"SAMARKAND SMART STANDART SERVICE" Xususiy korxonasi

(Yuridik shaxsning – tadbirkorlik subyektining tashkiliy-huquqiy shakli ko'rsatilgan holdagi to'liq nomi)

"SAMARKAND SMART STANDART SERVICE" XK

(Yuridik shaxsning qisqartirilgan nomi)

Tashkil etish (qayta tashkil etish, boshqa ro'yxatdan o'tkazish ma'lumotlarini o'zgartirish)

10.09.2021

1036208

ro'yxat raqamli yozuv kiritilganligi tasdiqlanadi.

(Sana, oy (so'z bilan), yil)

Soliq to'lovchining identifikatsiya raqami (STIR):

308848472

Tashkiliy-huquqiy shakli:

Xususiy korxonasi

Joylashgan joyi:

Samarqand viloyati, Samarqand shahri, RUDAKIY, 97,

Guvohnoma:

Samarqand viloyati, Samarqand shahri, DAVLAT
XIZMATLARI MARKAZI

tomonidan
berilgan

(Ro'yxatdan o'tkazuvchi organing to'liq nomi):

